

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI  
SAMARQAND VILOYAT XALQ TA’LIMI XODIMLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
HUDUDIIY MARKAZI

**TOLIPOVA T. K. DJURAYEVA SH. E.**

# Tabiatshunoslik darslarini tashkil etishda STEAM yondashuv

(boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun uslubiy ko‘rsatma)



**Samarqand-2021**

Tolipova Tursuntosh Karshiyevna. Djurayeva Shaxlo  
Erkinovna. Tabiatshunoslik darslarini tashkil etishda STEAM yondashuv.  
Samarqand 2021. 30 bet.

**Taqrizchilar:** N.Kiyamov-SamDU dotsenti.

J.Shodiyeva -VXXQTMOHM o'qituvchisi

*Samarqand VXXQTMOHM ilmiy kengashining 2021-yil 29-iyunda bo'lib  
o'tgan yig'ilishida muhokama etilgan va 3-sonli qarori bilan nashr etishga  
ruxsat berilgan.*





## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son farmoniga ko‘ra innovatsion ta’lim jarayoniga o‘tish, zamonaviy kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni inobatga olgan holda intensiv til, AKT va ta’lim berishning yangi metodlarini o‘rganish, STEAM pedagogika asoslarini o‘zlashtirish, yangi kasbiy kompetensiyalarni o‘zlashtirish uchun zarur bilimlar bazasini shakllantirish kabi masalalar vazifa qilib olindi. Bugun umumiy holda STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) abbreviaturasi ostida yangicha fikrlaydigan mutaxassislar tayyorlashga yo‘naltirilgan texnologiya, muhandislik va matematika kabi akademik va sohaviy fanlar kompleksi nazarda tutiladi va bunday kadrlarsiz innovatsion iqtisodiyot, madaniyat rivojlanishi mumkin emas. Ba’zan ushbu umumiy nomga «A» (Art — «san’at») komponenti ham qo‘shiladi (STEAM). STEAM—ta’lim zamonaviy jamiyatning uchta talabiga asosan yuzaga keldi:

1. Iqtisodimizning raqobatbardoshligi hamda jahon davlatlari darajasida innovatsiyalarda liderlikka erishish yo‘lida yangi impulslarni izlash.
2. Mehnat bozori hamda biznes, yuqori texnologik ishlab chiqarish tomonidan ta’lim oldiga qo‘yilgan yangi talablar.

Innovatsion iqtisod uchun poydevor bo‘lib hisoblangan zamonaviy texnologiyalar barcha sohalaridagi kadrlar oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Ushbu talablar nafaqat ta’lim sifatini yaxshilash, shuningdek, atrof-olamdagi real muammolarning yangi yechim yo‘llariga tayyor bo‘lgan kadrlarni tayyorlashga yangicha yondashuvlarni taqozo etmoqda.

Yurtimizda ta’lim sifati va natijasiga alohida e’tibor qaratilayotgan bir paytda ta’lim metodlarini takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish borasidagi asosiy vazifalardan biri o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodiy tafakkur jarayonlarini munosib tashkil etish, interfaol ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilish, o‘quvchilarning loyihaviy faoliyatini yo‘lga qo‘yishdir. “Loyihalar” metodini qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, vaziyatni baholash ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

STEAM – tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika fanlarini mutanosib o‘qitish uslubi.

Ko'zlangan maqsad - darsni maksimal qiziqarli olib borish orqali bilimlarni o'zlashtirish.

STEAM - maktab o'quvchilarini yangi o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish tizimida muqobil tizim hisoblanadi. U bolalarni bir vaqtning o'zida to'rtta fan - texnologiya, injinerlik, san'at va matematika bo'yicha o'qitish tizimiga asoslangan. Bunda amaliy va ko'ngilochar loyihalar mashg'ulotlari yordamida saboq beriladi.

STEAM - fanlar bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalangan o'qitish tizimidir. STEAM -ta'limda amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llashni o'rgatadi.

STEAM - bu axborotni tahlil qilish, olingan ma'lumotlarni o'zida umumlashtirish, o'quv jarayonida ochiq fikrlash mustaqil bilim olishda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish, muammolarni hal etish, turli vaziyatlarda bilimlarni qo'llay olish, tahlil qilish, xulosa chiqarib baholay olishdir.

Dars 45 daqiqa bo'lsa shuning oxirgi 15 daqiqasini STEAMga ajratiladi. Demak ,bugungi o'tilgan mavzuni o'quvchilar o'zlari bajarib, anglab, qo'llab xulosa chiqaradilar, kundalik hayotda qanday qo'llash mumkinligini o'rganadilar.

E'tiboringizga ana shu 15 daqiqaga mo'ljallangan mashg'ulot ishlanmasini "Atrofimizdagi olam" fani doirasida ayrim mavzular kesimida havola etamiz.

Ushbu uslubiy ko'rsatma 1-sinf "Atrofimizdagi olam" ( N. Mamadinov, M. Ahmedova) darsligi asosida yaratildi.

**Tabiatshunoslik darslarini tashkil etishda STEAM yondashuv**  
**Mavzu: Atrofimizdagi olam. (Atrofimizdagi olam 1-sinf)**

Darsning davomiyligi 45 minut.

STEAM yondashuvning davomiyligi 12 minut.

**STEAM yondashuvning maqsadi:** O‘quvchilarga atrofimizni o‘rab turgan dastlabki tushunchalarni berish , ularni ko‘rgan narsalarini idrok etish orqali oz tasavvurlarini kengaytirish.

**Ishlatiladigan va ko‘rgazmali dars jihozlari qurollari:**

	
A4 formatdagi oq qog‘ozlar	rangli qalamlar

	
flamasterlar	markerlar

**Ko‘rgazmali qurollar:** Atrofimizdagi muhit resurslari.

**O‘qituvchi uchun qaydlar:** O‘qituvchi o‘quvchilarni 5 guruhga bo‘lib ,

ularga 5 ta savolga javob tariqasida qog‘ozga tezkor rasm chizish orqali ijodkorligini oshirishga e‘tibor berish. 5 ta savolga 5 guruhga beriladi va topshiriq topshiriladi.

**Atrof olamga o‘zaro bog‘lash.** O‘qituvchi atrofimizdagi olam to‘g‘risida asosiy darsda berilgan tushunchalarni amaliyotda mustahkamlash uchun hayotiy misollar bilan o‘quvchilarga dastlabki tushunchalarni beradi.

**STEAM yondashuvni loyihalashtirish va modellashtirish.**

### **I-guruhga topshiriq:**

1. Atrof olamda nimalar ko‘rayotgan bo‘lishsa shularni 5 minut ichida tasvirlash.
2. O‘quvchilar atrof olamda nimalarni ko‘rgan bo‘lishsa ana shu tasavvur bilan oq qog‘ozga chizadilar va bo‘yoq, qalam, flamaster, markerlarda bo‘yadilar.



### **II guruhga topshiriq:**

1. “Sizning atrofingizda nimalar bor?” savolga 5 minut ichida tasvirlash.
2. O‘quvchilar atrofida kimlar bo‘lsa shu tasavvur bilan oq qog‘ozga chizadilar, bo‘yoq qalam, flamoster, markerlarda bo‘yadilar.





### **III guruhga topshiriq:**

1. “Atrofingizda nimalar bor?” degan savolga 5 minut ichida oq qog‘ozga tasvirlash.



### **IV guruhga topshiriq:**

1. “Sizni ko‘chada nimalar o‘rab turadi?” degan savolga 5 minut ichida oq qog‘ozga ko‘chada nima o‘rab turgan bo‘lsa, shuni tasvirlash.
2. O‘quvchilar o‘zlari yashab turgan ko‘chada nimalar o‘rab turganligini oq qog‘ozga rasm chizish.



V guruhga topshiriq:

1. “Uyingizda sizni nimalar o‘rab turadi?” degan savolga 5 minut ichida oq qog‘ozga ko‘rgan narsalarini rasmini chizish orqali tasvirlash.  
O‘quvchilar o‘zlari yashab turgan atrofida nimalar va kimlar borligini tasvirlaydilar.



### **O‘zaro muhokama. Nimalarga ahamiyat berildi? Qayd qiling!**

Belgilangan vaqt tugagandan keyin guruh ichidagi o‘quvchilardan biri, guruh a‘zolarining chizgan rasmlarini birma-bir izohlab beriladi. O‘qituvchi guruh a‘zolarining berilgan topshiriqlarining chizilganiga va jamoaning bir a‘zosini umumiy fikrlashiga katta e‘tibor berishi kerak.

### **Uyga vazifa berish va o‘quvchilarni baholash.**

O‘qituvchi darsda faol qatnashgan o‘quvchilarni baholaydi, amaliyotda berilgan topshiriqlarni uyga vazifa qilib beradi.







## Mavzu: Quyosh. Oy. (Atrofimizdagi olam 1-sinf)

Darsning davomiyligi 45 minut

STEAM yondashuvning davomiyligi 12 minut

**STEAM yondashuvning maqsadi:** O‘quvchilarda Quyosh va Oyning inson hayotida tutgan o‘rni. Ona sayyoramiz to‘g‘risida dastlabki tushunchalarni berish.

### Ishlatilgan dars jihozlari va qurollari.

		
Televizor	Oy	Yer sayyorasi galaktikasi
		
A4 formatdagi oq qog‘ozlar	modullar maketi va plakati	akvarel bo‘yoqlar

**Ko‘rgazmali qurol:** Klod Monening”Pichan g‘arami” kartinasini 6 xil vaqtda chizilgan O‘qituvchi uchun qaydlar. O‘qituvchi mavzuni asosiy darsda “Quyosh galaktikasidagi sayyoralar” ilmiy hujjatli filmni ko‘rsatgandan keyin 24 soatni kunning 6 qismiga bo‘ladi va sinf o‘quvchilarini ham 6 guruhga

bo‘ladi. Kunning har 4 soatida Quyosh va Oyning holati to‘g‘risida kundalik hayotimizda kunimiz qanday bo‘lishini akvarel bo‘yoqlarda tasvirlash topshirig‘i beriladi.

**Atrofimizdagi olamga o‘zaro bog‘lash.** O‘quvchilarda bir sutka ya‘ni 24 soatni 4 soatdan 6 qismga bo‘lib, ana shu qismlarda Quyosh va Oy Yerga qanday ta‘sir o‘tkazishini rasm orqali tasvirlash.

**STEAM yondashuvni loyihalashtirish va modellashtirish.**

I guruh: 04dan 1:00 gacha bo‘lgan vaqt.

II guruh: 8:00dan 12:00gacha bo‘lgan vaqt.

III guruh: 16:00dan 20:00gacha bo‘lgan vaqt .

IV guruh: 20:00dan 24:00gacha bo‘lgan vaqtni I yarimigacha.

V-guruh: 24:00dan 04gacha bo‘lgan vaqtni tunning II yarimidan erta nahorgacha.

Hamma guruh a‘zolariga belgilangan vaqtda A4 formatidagi oq qog‘ozga Quyosh va Oyning belgilangan kun vaqtlarida qanday ta‘sir o‘tkazishini tasvirlash topshirig‘i beriladi. O‘quvchilar kichik guruhlarda akvarel bo‘yoqlardan foydalanib 5 minut vaqt ichida asosiy ranglardan foydalanib tezkor chizish kerakligi aytib o‘tiladi.

**O‘zaro muhokama. Nimalarga ahamiyat berildi? Qayd qiling!**

O‘qituvchi belgilangan vaqt tugagandan so‘ng barcha guruh a‘zolari orasidan bir vakildan chiqib taqdimot qilishini tushuntiradi. Berilgan topshiriqlar bo‘yicha chizilgan rasmlarning qanday chizilgani, qanday ranglardan foydalanganligi va ularni o‘quvchilar tomonidan ta‘riflanishiga e‘tibor berish lozim.

**Uyga vazifa berish va o‘quvchilarni baholash.**

O‘qituvchi darsda faol qatnashgan o‘quvchilarni baholaydi va amaliyotda qo‘llay olish uyga vazifa qilib beriladi.









**Mavzu:Uy hayvonlari.** (Atrofimizdagi olam 1-sinf).

Darsning davomiyligi 45 minut.

STEAM yondashuvning davomiyligi 12 minut.

**STEAM yondashuvning maqsadi:** Uy hayvonlari to‘g‘risida dastlabki umumiy tushunchalar berish ularning inson hayotidagi o‘rni va ulardan kundalik hayotimizda qanday maqsadlarda foydalanish tasavvurlarini hosil qilish. **Ishlatiladigan dars jihozlari va qurollari:**

			
Plakatlar majmuasi	A4 formatdagi oq qog‘ozlar	Markerlar	Flamasterlar



**O‘qituvchi uchun qaydlar:** O‘qituvchi sinf o‘quvchilarni 5 guruhga bo‘ladi.


Guruhlarni 5 faoliyat bo‘yicha alohida topshiriqlar beradi.O‘quvchilar 7

minut ichida vazifalarni tezkor bajarishga va ularni insonga qanday foydasi tegishi kerakligi to'g'risida fikr bera olishiga e'tibor berishi lozim.

**Atrof olamga o'zaro bog'lash.** O'quvchilarda uy hayvonlari to'g'risida tasavvurlar hosil bo'ladi.

**STEAM yondashuvni loyihalashtirish va modellashtirish .**

**I-guruhga topshiriq:** pazllardan uy hayvonlari rasmini yig'ib chiqish.



**II-guruhga topshiriq: plastilindan uy hayvonlarini modellarini yasash.**



it



qo'y



echki



ot

**III guruhga topshiriq:mulyaj va LEGO DUPLO "Uy hayvonlari" to'plamlaridan uy hayvonlari modellarini yig'ish.**



**IV guruhga topshiriq:**

**1. Uy hayvonlari rasmlarini markerda A4 formatidagi oq qog'ozlarga chizish.**





**Vguruhga topshiriq:** mozaika bo‘laklaridan uy hayvonlarini rasmni yig‘ish vazifasi beriladi.



**O‘zaro muhokama. Nimalarga ahamiyat beriladi? Qayd qiling!**  
Belgilangan vaqt tugagandan so‘ng o‘qituvchi barcha guruhlar bajargan vazifalarini ko‘rib chiqadi va har bir guruhning a‘zolari uy hayvonlari to‘g‘risida o‘z fikrlarini bayon qiladilar. O‘qituvchi bajarilgan ishlarning sifati va fikrlar xilma-xilligi va mazmuniga e‘tibor berishi lozim.

**Uyga vazifa berish va o‘quvchilarni baholash.**

O‘qituvchi darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilarni baholaydi va amaliyotda qo‘llay olish uyga vazifa qilib beriladi.



## Mavzu: Uy parrandalari (Atrofimizdagi olam 1-sinf)

Darsning davomiyligi 45 minut

STEAM yondashuvning davomiyligi 12 minut

**STEAM yondashuvning maqsadi:** Uy parrandalari to‘g‘risida dastlabki umumiy tushunchalar berish ularning inson hayotidagi o‘rni va ulardan kundalik hayotimizda qanday maqsadlarda foydalanish tasavvurlarini hosil qilish.

. **Ishlatiladigan dars jihozlari va qurollari:**

			
Pazllar	Mulyajlar	Mozaikalar	Plastilin
			
A4 formatdagi oq qog‘ozlar	Qora markerlar	LEGO DUPLO	<b>Ko‘rgazmli qurol:</b> ”Uy parrandalari”plakatlari.

**O‘qituvchi uchun qaydlar:** O‘qituvchi sinf o‘quvchilarni 5 guruhga bo‘ladi. Guruhlarni 5 faoliyat bo‘yicha alohida topshiriqlar beradi. O‘quvchilar 7 minut ichida bajarish va parrandalar inson hayotida qanday o‘rin tutishi to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. **Atrof olamga o‘zaro bog‘lash.** O‘quvchilarda kundalik hayotimizda har kuni uchratadigan uy parrandalari to‘g‘risida to‘liq tasavvurlarni shakllantirishdan iborat.



**STEAM yondashuvni loyihalashtirish va modellashtirish .**

**I guruhga topshiriq:** plastilindan uy parrandalarini modellarini yasash vazifasi beriladi.



**II guruhga topshiriq:** mulyaj va LEGO DUPLO "Uy parrandalari" to'plamlaridan foydalanib uy parrandalari modellarini yig'ish



**III guruhga topshiriq:** uy parrandalari rasmlarini A4 formatidagi oq qog'ozlarga markerda chizish.



IV guruhga topshiriq: pazllardan uy parrandalari rasmini yig'ib chiqish.



V guruhga topshiriq: mozaika bo'laklaridan uy parrandalarini rasmni yig'ish.



**O'zaro muhokama. Nimalarga ahamiyat beriladi? Qayd qiling!**

Belgilangan vaqt tugagandan keyin o'qituvchi barcha guruhlar bajargan vazifalarini ko'rib chiqadi va har bir guruhning a'zolari rasmlarni va yasalgan modellarni ta'riflab berishni so'raydi.

**Uyga vazifa berish va o'quvchilarni baholash.**

O'qituvchi darsda faol qatnashgan o'quvchilarni baholaydi va amaliyotda qo'llay olish uyga vazifa qilib beriladi.

## Mavzu: Yovvoyi hayvonlar. (Atrofimizdagi olam 1-sinf).

Darsning davomiyligi 45 minut

STEAM yondashuvning davomiyligi 12 minut

**STEAM yondashuvning maqsadi:** Yovvoyi hayvonlarining turlari ularning qayerda yashash va nimalar yeb oziqlanishi to'g'risida dastlabki tushunchalar berish orqali tasavvurlarini kengaytirish.

**Ishlatiladigan dars**

**jihozlari va qurollari:** Pazllar, mulyajlar, A4 formatdagi oq qog'ozlar, markerlar, flamasterlar, LEGO to'plamlari.

			
Pazllar	Mulyajlar	Plastilin	Flamasterlar
			
A4 formatdagi oq qog'ozlar	Markerlar	LEGO	"Yovvoyi hayvonlar" plakatlari.

**O'qituvchi uchun qaydlar:** O'qituvchi sinf o'quvchilarini 5 guruhga bo'ladi. Guruhlarga 5 faoliyat turi bo'yicha vazifalar beradi. O'quvchilar 7 minut ichida bajarishi suvda va quruqlikda yashovchi yovvoyi hayvonlar hamda ularning oziqlanishi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish lozim.

**Atrof olamga o'zaro bog'lash.** Atrof olamdagi hayvonot dunyosidagi suvda va quruqlikda yashayotgan yovvoyi hayvonlarni yashash tarixi va oziqlanishi to'g'risida o'quvchilarni dastlabki tasavvurlarni shakllantirishdan iborat.

**STEAM yondashuvni loyihalashtirish va modellashtirish .**



**I-guruhga topshiriq: yovvoyi hayvonlari rasmlarini A4 formatidagi oq qog‘ozlarga markerda chizish. Pazllarda yovvoyi hayvonlar rasmini yig‘ib chiqish.**




**II guruhga topshiriq: pazllarda yovvoyi hayvonlar rasmini yig‘ib chiqish. Plastilindan yovvoyi hayvonlarning modellarini yasash .**



**III guruhga topshiriq: mozaika bo‘laklaridan yovvoyi hayvonlarni rasmini yig‘ish .**



**IV guruhga topshiriq: plastilindan yovvoyi hayvonlarni modellarini yasash .**



**V-guruhga topshiriq: mulyaj va LEGO DUPLO”Yovvoyi hayvonlar” to‘plamlaridan uy hayvonlari modellarini yig‘ish.**



**O‘zaro muhokama. Nimalarga ahamiyat beriladi? Qayd qiling!**  
Belgilangan vaqt tugagandan so‘ng o‘qituvchi barcha guruhlar bajargan vazifalarini ko‘rib chiqadi va har bir guruhning a‘zolari chizgan rasmlar va modellarni ta’riflashi lozim.

**Uyga vazifa berish va o‘quvchilarni baholash.**

O‘qituvchi darsda faol qatnashgan o‘quvchilarni baholaydi va amaliyotda qo‘llay olish uyga vazifa qilib beriladi..

## Mavzu: Qushlar. (Atrofimizdagi olam 1-sinf)

Darsning davomiyligi 45 minut

STEAM yondashuvning davomiyligi 12 minut

**STEAM yondashuvning maqsadi:** O‘quvchilarni atrof olamdagi qushlar to‘g‘risida dastlabki tushunchalar berish va ularning tasavvurlarini kengaytirish.

**Ishlatiladigan dars jihozlari va qurollari:**

		
Pazllar	Mulyajlar	A4 formatdagi oq qog‘ozlar
		
Markerlar	Flamasterlar	LEG O DUPLO to‘plami.

**Ko‘rgazmli qurol:**”Qushlar”to‘g‘risida plakatlar.


**O‘qituvchi uchun qaydlar:**O‘qituvchi sinf o‘quvchilarni 5 guruhga bo‘ladi. Guruhlarga 5 faoliyat turi bo‘yicha topshiriqlar beradi.

**Atrof olamga o‘zaro bog‘lash.**Atrof olamdagi qushlar to‘g‘risida umumiy dastlabki tushunchalarni va tasavvurlarni o‘quvchilarda shakllantirish.

**STEAM yondashuvni loyihalashtirish va modellashtirish .**

**I guruh: Mozaika bo‘laklaridan qushlar tasvirlarini yig‘ish .**





**II guruhga topshiriq: qaldirg'och rasmini A4 formatidagi oq qog'ozlarga markerda chizish.**




**III guruhga topshiriq: rangli qog'ozlardan qushlar applikasiyasi yasash**



**IV guruhga topshiriq: LEGO DUPLO to'plamlaridan qushlar maketini yasash.**



**V guruhga topshiriq: asosiy darsda ko'rgazmali qurollarda ko'rsatilgan qushlarni A4 formatdagi oq qog'ozlarga tasvirlash.**



**O'zaro muhokama. Nimalarga ahamiyat beriladi? Qayd qiling!**

Belgilangan vaqt tugagandan so'ng o'qituvchi barcha guruhlar bajargan vazifalarini ko'rib chiqadi va ularni izohlab berishini eshitib o'z xulosasini chiqaradi.

**Uyga vazifa berish va o'quvchilarni baholash.**

O'qituvchi darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholaydi va amaliyotda qo'llay olish uyga vazifa qilib beriladi.



## Mavzu: Suv. (Atrofimizdagi olam 1-sinf)

Darsning davomiyligi 45 minut

STEAM yondashuvning davomiyligi 12 minut

**STEAM yondashuvning maqsadi:** suvning inson hayotida tutgan o‘rni to‘g‘risida tushunchalar berish va tasvirlarini kengaytirish.

**Ishlatiladigan dars jihozlari va qurollari :**

	
Suv probirkalari	Tefal choynagi

**Ko‘rgazmli qurol:** Suvning tabiatda aylanish sxemasi .



**O‘qituvchi uchun qaydlar:** O‘qituvchi tabiiy suvlar ,qaynatilgan suvlar to‘g‘risida amaliy ish ko‘rsatadi va 5 ta faoliyat turi bo‘yicha 5 ta guruhga bo‘ladi.

**Atrof olamga o‘zaro bog‘lash.** Suvning inson hayotida tutgan o‘rni va kundalik hayotimizdagi o‘rni.

**STEAM yondashuvni loyihalashtirish va modellashtirish.**

**I guruhga topshiriq:** okean ,dengiz suvlari rasmini akvarel bo‘yoqda chizish.



**II guruhga topshiriq:** daryo va ariqlardagi suvlarni akvarel qalamlarida tasvirlash.




**III guruhga topshiriq:** bulutlar, yomg'ir yog'ishi va uning parlanishini tasvirlash.



**IV guruhga topshiriq:** kundalik hayotimizda suvni qaynatishda foydalanadigan jihozlarimizni qora markerlarda tasvirlash.







**V guruhga topshiriq:** kundalik hayotimizda ishlatiladigan suv bilan bevosita ishlatiladigan uy jihozlarini rangli qalamlarda tasvirlash.



**O‘zaro muhokama, Nimalarga ahaamiyat berishdi? Qayd qiling!**

Belgilangan vaqt tugaganda so‘ng har bir guruhdan bir nafar a‘zosi bajarilgan vazifasi to‘g‘risida o‘z fikrlarini bayon qiladi. O‘qituvchi bajarilgan ishlarning sifati, ijodkorligiga va fikrlashiga e‘tibor berishi lozim.

**Uyga vazifa berish va o‘quvchilarni baholash.**

O‘qituvchi darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilarni baholaydi va o‘tilgan mavzu yuzasidan uyga vazifalar beradi.

## XULOSA

Ta'limga STEAM yondoshuvini olib kirish o'quvchilarni o'tilgan mavzu yuzasidan olgan bilimlarini anglab yetishga va shu bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olishga yordam beradi. Zero Xitoy faylasufi Konfutsiy ta'limotiga ko'ra: "Aytsang unutaman, ko'rsatsang, eslab qolaman, o'zim bajarsam, anglab yetaman" degan fikrlari nechog'li to'g'ri ekanligini guvohi bo'lamiz. Sir emaski, bugungi kunda o'quvchilarimizda yaratuvchanlik, izlanuvchanlik, ixtirochilik faoliyati juda past. Ta'limda bizning oqsayotgan nuqtamiz ham ana shunda. O'quvchilarimiz o'rgangan, olgan bilimlarini kundalik hayotda qo'llashga qiynalyaptilar. Shuning uchun ham STEAM o'quvchilarda boshlang'ich sinflardan o'rgatib borilganda ularda konstruktorlik, modellashtirish, programmalashtirish ko'nik-malarini shakllantirib, ularda kelajak kasblariga yo'l ochib beradi.

STEAM -bu axborotni tahlil qilish, olingan ma'lumotlarni o'zida umumlashtirish, o'quv jarayonida ochiq fikrlash mustaqil bilim olishda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish, muammolarni hal etish, turli vaziyatlarda bilimlarni qo'llay olish, tahlil qilish, xulosa chiqarib baholay olishdir.

Bir soat dars 45 daqiqa bo'lsa shuning oxirgi 15 daqiqasini STEAM texnologiyasiga ajratiladi. Demak, bugungi o'tilgan mavzuni o'quvchilar o'zlari bajarib, anglab, qo'llab xulosa chiqaradilar, kundalik hayotda qanday qo'llash mumkinligini o'rganadilar.

E'tiboringizga ana shu 15 daqiqaga mo'ljallangan mini-loyihalar "Atrofimizdagi olam" fani doirasida ayrim mavzular kesimida havola etilmoqda.

Ushbu o'quv-uslubiy metodik qo'llanma 1-sinf "Atrofimizdagi olam" (N. Mamadinov , M. Ahmedova) darsligi asosida yaratildi.

## **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Kompetensiyaviy yondashuv asosidagi DTS Toshkent-2017.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. -T. 1992.
3. Atrof-muhit muhofazasi va ekologik ta’lim-tarbiyaga oid ko‘p yillik o‘quv va ilmiy dastur hamda rejalar/ to‘zuvchi: Ergashev A.E; Nizomiy nomli ToshDPI.-T.: 1991. 38b.
4. Baratov Pattox. Tabiatni muhofaza qilish: O‘qituvchilar uchun fakultativ kurs yuzasidan qo‘llanma.- T.: O‘qituvchi, 1991.-256b.
5. Buyuk ipak yo‘li: geografiya, turizm va ekologiya. Halqaro konferensiya ma’ruzalari to‘plami, S.: 1998. 198b.
6. Bahromov A. Tabiatshunoslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinflari uchun darslik – T.: “Cho‘lpon” NMIU, 2014. - 120 b.
7. Bahromov A. Tabiatshunoslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinflari uchun darslik – T.: “Cho‘lpon” NMIU, 2014. - 120 b.
8. Bahromov A.D., Sharipov Sh.M., Nabiyeva M.T. Tabiatshunoslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. Mas’ul muharrir A.Nigmatov. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 5-nashri.– T.:Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2016. -128b
9. Bahromov A. va b.q. Tabiatshunoslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. 3-nashri. –T.: “Sharq”, 2017. - 120 b.
- 10.Т.В.Волосовец, В.А.Маркова, С.А.Аверин“STEAM-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста” Москва 2019 г.
- 11.Jon Tarnoff “STEMdan- STEAMgacha –tanlovda ijodiy qobiliyatlarning ahamiyati”

## **ELEKTRON TA’LIM RESURSLARI**

1. <http://www.edu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi portali,
2. <http://www.multimedia.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi sayti.

## **Mundarija**

Kirish .....	5
Tabiatshunoslik darslarini tashkil etishda STEAM yondashuv.	
Atrofimizdagi olam. (Atrofimizdagi olam 1-sinf).....	7
Quyosh. Oy. (Atrofimizdagi olam 1-sinf).....	11
Uy hayvonlari. (Atrofimizdagi olam 1-sinf).....	14
Uy parrandalari. (Atrofimizdagi olam 1-sinf).....	18
Yovvoyi hayvonlar (Atrofimizdagi olam 1-sinf) .....	21
Qushlar. (Atrofimizdagi olam 1-sinf).....	24
Suv. (Atrofimizdagi olam 1-sinf).....	27
Xulosa .....	30
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati .....	31

**TOLIPOVA TURSUNTOSH KARSHIYEVNA**

**DJURAYEVA SHAXLO ERKINOVNA**



**TABIATSHUNOSLIK DARSLARINI TASHKIL ETISHDA  
STEAM YONDASHUV**

Terishga berildi: \_\_.06.2021-y.

Bosishga ruxsat berildi: \_\_ 06.2021-y.

Ofset bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 1/16.

«Times» garniturasini. Ofset bosma usuli.

1,5 bosma taboq

Adadi:25 nusxa.

Buyurtma №\_\_

Samarqand viloyat xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi bosmaxonasida chop etildi.

Samarqand shahar Xasan Obiddinov ko‘chasi 7-uy